Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

CHET TILINI O'QITISHDA EXTENSIVE VA INTENSIVE READING METODLARIDAN FOYDALANISH

Madinabonu Rustamjon qizi Rahmonova*
Chet tillari fakulteti talabasi
✉ rakhmonovam007@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada chet tilini o'qitish jarayonida extensive reading (keng qamrovli o'qish) va intensive reading (chuqurlashtirilgan o'qish) metodlaridan foydalanishning nazariy va metodik jihatlari yoritilgan. O'qish ko'nikmasi xorijiy tilni o'zlashtirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, matn mazmunini tushunish va mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi ushbu ikki metodning xususiyatlarini tahlil qilish, ularning o'zaro farqlarini aniqlash va chet tili darslarida qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar extensive reading o'quvchilarning muntazam o'qish tajribasini kengaytirishga, intensive reading esa matnni batafsil tushunish va til birliklarini kontekstda o'rganishga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Ushbu metodlarni uyg'unlashtirish o'qish mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Kalit so'zlar

chet tilini o'qitish, extensive reading, intensive reading, o'qish ko'nikmasi, o'qib tushunish, lug'at boyligi, o'qish strategiyalari, mustaqil ta'lim.

DOI: 10.5281/zenodo.23617286

Kirish

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chet tilini samarali o'zlashtirish tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi asosiy ko'nikmalarning o'zaro bog'liq holda rivojlantirilishini talab etadi. Ushbu ko'nikmalar orasida o'qish alohida o'rin tutadi, chunki u o'quvchilarga turli mavzulardagi ma'lumotlarni olish, yangi so'zlarni o'rganish va tilning grammatik xususiyatlarini tabiiy kontekstda tushunish imkonini beradi. O'qish jarayoni faqat yozma belgilarni tanib olish yoki so'zlarni tarjima qilish bilan cheklanmaydi. U matn mazmunini anglash, asosiy fikrni aniqlash, muhim ma'lumotlarni ajratish va o'qilgan axborotni tahlil qilish kabi murakkab aqliy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Grabe (2009) o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda til bilimlari, matnni tushunish strategiyalari va o'quvchining avvalgi bilimlari muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Chet tilini o'qitish metodikasida extensive reading va intensive reading o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim yondashuvlar hisoblanadi. Extensive reading, ya'ni keng qamrovli o'qish, o'quvchilarning til darajasiga mos ko'plab matnlarni muntazam o'qishiga va umumiy mazmunni tushunishiga asoslanadi. Intensive reading, ya'ni chuqurlashtirilgan o'qish esa muayyan matnni batafsil tahlil qilish, yangi so'zlarning ma'nosini aniqlash va matndagi muhim ma'lumotlarni tushunishga yo'naltiriladi. Day va Bamford (1998) keng qamrovli o'qishni tashkil etishda o'quvchilarga tushunarli materiallarni tanlash, muntazam o'qish imkoniyatini yaratish va ularning mustaqilligini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydilar. Nuttall (2005) esa o'qish mashg'ulotlarida matn mazmunini tushunish va o'quvchilarning o'qish maqsadlarini hisobga olish muhimligini ko'rsatadi. Amaliyotda faqat matnni tarjima qilishga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil o'qish tajribasini cheklashi mumkin. Shu bilan birga, matnning umumiy mazmunini tushunish bilan

cheklanib qolish ayrim til birliklarini chuqur o‘rganish imkoniyatini kamaytiradi. Shu sababli ikkala metoddan maqsadga muvofiq foydalanish chet tili darslarini samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biridir. Mazkur maqolaning maqsadi chet tilini o‘qitishda extensive va intensive reading metodlarining nazariy xususiyatlarini o‘rganish, ularning farqli jihatlarini aniqlash hamda ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, chet tilini o‘qitishda o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy adabiyotlarni o‘rganishga asoslangan. Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini Day va Bamfordning (1998) extensive reading metodiga oid ishlari, Grabe (2009) hamda Grabe va Stollerning (2011) o‘qish ko‘nikmalarini o‘rgatishga doir tadqiqotlari, Nationning (2009) chet tilida o‘qish va yozishni rivojlantirish bo‘yicha metodik qarashlari hamda Nuttallning (2005) o‘qish metodikasiga oid tavsiyalari tashkil etdi.

Tahlil jarayonida quyidagi mezonlarga e’tibor qaratildi:

1.extensive va intensive reading metodlarining asosiy maqsadlarini aniqlash;

2 .har ikki metodda foydalaniladigan matnlarning xususiyatlarini taqqoslash;

3.lug‘at boyligini rivojlantirish va matnni tushunishdagi imkoniyatlarini o‘rganish;o‘qituvchi va o‘quvchining o‘qish jarayonidagi vazifalarini tahlil qilish;

4.metodlarni dars jarayonida birgalikda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash.

O‘rganilgan ilmiy qarashlar mazmuniga ko‘ra guruhlashtirildi va ikki metodning o‘ziga xos jihatlari o‘zaro taqqoslandi. Shuningdek, nazariy tahlil asosida chet tili mashg‘ulotlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy topshiriqlar ishlab chiqildi.

Natijalar

Ilmiy adabiyotlar tahlili extensive va intensive reading metodlarining maqsadlari va o‘qish jarayonini tashkil etish xususiyatlari bilan farqlanishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu metodlar o‘quvchilarning o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda bir-birini to‘ldirishi mumkin.

Extensive reading metodining o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni. Extensive reading keng qamrovli o‘qish bo‘lib, o‘quvchilarning o‘z til darajasiga mos bo‘lgan turli matnlarni muntazam va nisbatan mustaqil ravishda o‘qishiga asoslanadi. Ushbu metodning asosiy maqsadi o‘quvchilarning o‘qish tajribasini kengaytirish, matnning umumiy mazmunini tushunish va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Keng qamrovli o‘qishda hikoyalar, moslashtirilgan kitoblar, qisqa maqolalar, bolalar adabiyoti va o‘quvchilarning qiziqishlariga mos boshqa materiallardan foydalanish mumkin. Materiallar o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi muhim, chunki juda murakkab matnlar o‘qish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Extensive reading jarayonida o‘quvchilar har bir notanish so‘zni lug‘atdan izlash o‘rniga, uning ma’nosini kontekstdan aniqlashga harakat qiladilar. Bu ularga matn mazmunini yaxlit tushunish va o‘qish jarayonini uzluksiz davom ettirish imkonini beradi. Masalan, ingliz tilini o‘rganuvchi o‘quvchilarga haftada bitta qisqa hikoya yoki o‘z darajalariga mos kitobni o‘qish topshirig‘i berilishi mumkin. O‘qishdan so‘ng ular hikoyaning qisqacha mazmunini yozadilar, asosiy qahramonlarni tasvirlaydilar yoki o‘zlariga yoqqan voqeani izohlaydilar. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning matnni umumiy tushunish va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Keng qamrovli o‘qishning yana bir muhim jihati lug‘at boyligini rivojlantirish bilan bog‘liq. O‘quvchilar matnlarni muntazam o‘qish orqali yangi so‘z va iboralarga turli kontekstlarda duch keladilar. Bunday takroriy uchrashuvlar so‘zlarning ma’nosini tushunish va ularni eslab qolishga yordam berishi mumkin.

Intensive reading metodining o‘ziga xos xususiyatlari. Intensive reading chuqurlashtirilgan o‘qish bo‘lib, muayyan matnni aniq ta’limiy maqsad asosida batafsil o‘rganishni nazarda tutadi. Ushbu metodda matnning asosiy g‘oyasi, muhim tafsilotlari, yangi so‘zlarning kontekstdagi ma’nosi va grammatik birliklarning qo‘llanilishi o‘rganiladi. Intensive reading mashg‘ulotlarida o‘qituvchi o‘quvchilarga matn mazmuniga oid savollar, ma’lumotlarni moslashtirish, matndan dalil topish, gaplarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi topshiriqlarni berishi mumkin. Bunda topshiriqlar o‘quvchilarning til darajasi va dars maqsadiga mos bo‘lishi

kerak.

Masalan, o‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzi haqidagi ingliz tilidagi matn taqdim etiladi. Dastlab ular matnning asosiy g‘oyasini aniqlaydilar. Keyin matnda keltirilgan tavsiyalarni topadilar, notanish so‘zlarning ma’nosini kontekst orqali tushunishga harakat qiladilar va muhim grammatik tuzilmalarga e’tibor qaratadilar. Ushbu metod o‘quvchilarning batafsil o‘qish, muhim ma’lumotlarni ajratish va matn mazmunini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z javoblarini matndagi dalillar bilan asoslashni o‘rganadilar. Biroq intensiv o‘qish jarayonida har bir so‘zni alohida tarjima qilishga ortiqcha e’tibor qaratish matnni umumiy tushunishga xalaqit berishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi matnni tahlil qilishda muhim til birliklari va asosiy mazmunga e’tibor qaratishi lozim.

Metodlarni dars jarayonida uyg‘unlashtirish. Extensive va intensive reading metodlarini birgalikda qo‘llash o‘qish mashg‘ulotlarini mazmunan boyitish imkonini beradi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning til darajasi, qiziqishlari va dars maqsadlarini hisobga olishi lozim. Masalan, “Environment” mavzusidagi mashg‘ulotda o‘quvchilarga atrof-muhit haqidagi ingliz tilidagi matn beriladi. Dastlab ular matnni o‘qib, asosiy g‘oyani aniqlaydilar va mazmunini umumlashtiradilar. Keyingi bosqichda matndagi muhim ma’lumotlar, yangi so‘zlar va sabab-oqibat munosabatlari batafsil tahlil qilinadi. Yana bir usul sifatida o‘quvchilarga uyda mustaqil hikoya o‘qish va o‘qish kundaligini yuritish topshirilishi mumkin. Keyingi darsda esa hikoyaning muhim parchasi sinfda tahlil qilinadi. O‘quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini izohlaydilar va matndan o‘z fikrlarini tasdiqlovchi dalillar topadilar. Bunday mashg‘ulotlarda keng qamrovli o‘qish o‘quvchilarning mustaqil o‘qish tajribasini oshirsa, chuqurlashtirilgan o‘qish matnni batafsil tushunish imkonini beradi. O‘qituvchi ikki metodni dars maqsadiga muvofiq uyg‘unlashtirish orqali o‘qish jarayonini izchil tashkil etishi mumkin.

Muhokama

Nazariy tahlil extensive va intensive reading metodlarini bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlar sifatida qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi. Ularning har biri o‘qish kompetensiyasining turli jihatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Metodlarni tanlashda o‘quvchilarning til darajasi, o‘qish maqsadi va foydalaniladigan materiallarning xususiyatlarini hisobga olish zarur.Day va Bamford (1998) keng qamrovli o‘qishda tushunarli materiallarni muntazam o‘qish va o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadilar. Grabe va Stoller (2011) esa o‘qish jarayonida til bilimlari, tushunish strategiyalari va o‘qish maqsadlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Ushbu qarashlar o‘quvchilarga nafaqat matnni chuqur tahlil qilish, balki mustaqil ravishda ko‘proq o‘qish imkoniyatini ham yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Extensive reading metodini qo‘llashda o‘quvchilarning qiziqishlariga mos, tushunarli va yosh xususiyatlariga muvofiq matnlarni tanlash muhim hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga turli mavzulardagi kitob va hikoyalarni tavsiya qilishi, muntazam o‘qishni rag‘batlantirishi va o‘qilgan materiallar yuzasidan qisqa fikr almashish mashg‘ulotlarini tashkil qilishi mumkin. Intensive reading metodida esa topshiriqlar aniq maqsadga yo‘naltirilishi kerak. O‘quvchilardan matndagi barcha so‘zlarni tarjima qilishni talab qilish o‘rniga, asosiy fikrni aniqlash, muhim ma’lumotlarni topish va so‘zlarning kontekstdagi ma’nosini tushunishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Baholash jarayonida ham har ikki metodning xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Extensive readingda muntazam o‘qish, matn mazmunini umumlashtirish va mustaqil fikr bildirish kabi mezonlardan foydalanish mumkin. Intensive readingda esa matnni tushunish, muhim ma’lumotlarni aniqlash, xulosalarni asoslash va til birliklarini kontekstda izohlash qobiliyati baholanadi. Mazkur tadqiqotning cheklovi shundaki, u ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslangan va o‘quvchilar ishtirokida tajriba o‘tkazilmagan. Shu sababli metodlarning samaradorligi haqida statistik xulosalar chiqarish mumkin emas. Kelgusida turli til darajalaridagi o‘quvchilar bilan amaliy tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qish natijalaridagi o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa

Chet tilini o‘qitishda extensive va intensive reading metodlari o‘quvchilarning o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim metodik yondashuvlardir. Extensive reading ko‘proq matn o‘qish, umumiy mazmunni tushunish va mustaqil o‘qish odatini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Intensive reading esa matnni batafsil o‘rganish, muhim ma’lumotlarni aniqlash va til birliklarini kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Nazariy tahlil ushbu metodlarning maqsadlari turlicha bo‘lsa-da, ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish mumkinligini

ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning til darajasi va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda mustaqil o‘qish faoliyatlarini matnni chuqur tahlil qilish topshiriqlari bilan birlashtirishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, extensive va intensive reading metodlaridan maqsadga muvofiq foydalanish o‘quvchilarning o‘qish tajribasini kengaytirish, matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish va mustaqil ta’lim olish qobiliyatini mustahkamlash uchun metodik asos yaratadi. Ushbu metodlarning amaliy samaradorligini yanada aniq baholash uchun kelgusida empirik tadqiqotlar olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlarFoydalanilgan adabiyotlar

1. Alderson, J. C. (2000). *Assessing Reading*. Cambridge University Press.
2. Brown, H. D. (2007). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy* (3rd ed.). Pearson Education.
3. Day, R. R., & Bamford, J. (1998). *Extensive Reading in the Second Language Classroom*. Cambridge University Press.
4. Day, R. R., & Bamford, J. (2002). Top ten principles for teaching extensive reading. *Reading in a Foreign Language, 14*(2), 136–141.
5. Grabe, W. (2009). *Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice*. Cambridge University Press.
6. Grabe, W., & Stoller, F. L. (2011). *Teaching and Researching Reading* (2nd ed.). Routledge.